

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTIda
texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni institutning mos
bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish
bo‘yicha tuzilgan savollar bazasi.**

**Texnikumning 50720701 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va
texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha) - professional ta’lim mutaxassisligi
bazasidan,**

**Institutning 60720700 – Yengil sanoat muhandisligi (tikuv buyumlari
texnologiyasi) ta’lim yo‘nalishiga.**

№	Savollar
1-mavzu. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish	
1.	To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlanishi uchun O‘zbekiston Prezidenti tomonidan qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
2.	Mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlanishida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sohasining o‘rni.
3.	Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollarga munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalasida Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlarga qanday imtiyozlar berilmoqda? Siz bu imtiyozlardan foylanganmisiz?
4.	Yengil sanoatni yanada rivojlantirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak deb hisoblaysiz? Siz qanday yangiliklar kiritgan bo‘lar edingiz?
5.	Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqariladigan tikuv-trikotaj mahsulotlarining assortimentini kengaytirish, raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaysiz?
6.	Hozirgi kunda respublikamizda qaysi xorijiy davlatlarining mutaxassislari tikuvchilik korxonalarida faoliyat olib borishmoqda? Ularning vazifasini o‘zimizning mutaxassislari bajara olishadimi? Sizning fikringiz.
7.	Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash, tadbirkorlik qilishga bo‘lgan tashabbuslarini rag‘batlantirish borasida respublikamizda qanday islohotlar olib borilmoqda?
8.	Hozirgi kunda tikuvchilik sohasida mamlakatimizda qanday islohotlar ilgari surilmoqda? Klaster tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2-mavzu. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish)	
1.	Respublikamizda tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan yirik korxonalarni misol keltiring. Hozirgi kunda mamlakatimizda yangi tashkil etiladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan va mahsulotini eksport qiladigan korxonalar uchun qanday

	imtiyozlar berilmoqda?
2.	O'zingizni shaxsiy rivojlanishingiz uchun nimalar muhim deb hisoblaysiz? So'ngi yillarda shaxsiy rivojlanish orqali taniqli bo'lgan soha vakillarini bilasizmi?
3.	Tikuvchilik yo'nalishiga o'qishga kirishingizdan maqsad? Kelajakda yurtimiz iqtisodiyotini rivojlanishi uchun nimalar qilmoqchisiz?
4.	Siz tikuvchilik yo'nalishining talabasi bo'lish niyatingiz bor. To'g'ri qaror qabul qilganingizga qanchalik ishonchingiz komil? Sohani rivojlantirish uchun nima qilmoqchisiz?
5.	Tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarni eksporti keng amalga oshirilmoqda. Eksport salohiyatini yanada oshirish nimalarga bog'liq deb hisoblaysiz? Milliy brendlarni bilasizmi?
6.	Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishida tikuv-trikotaj korxonalari yirik buyurtmalarni shakllantirishi muhim hisoblanadi. Buning uchun qanday masalalar o'rganilishi kerak, bu korxonalarning moliyaviy barqarorligini qanday saqlab qolish mumkin deb hisoblaysiz?
7.	Tikuvchilik sohasiga qanday yangiliklar kiritishingiz mumkin deb o'ylaysiz? Sizning takliflaringiz qanchalik zamon talabiga javob beradi?
8.	Soha bo'yicha qaysi Jahon brendlarni bilasiz? O'zingizni shaxsiy brendingiz bo'lsa, uni qanday nomlardingiz? Nima deb o'ylaysiz brend barqarorligi nimalarga bog'liq?
9.	Tikuvchilik sohasida eng original g'oyalar qaysilar deb hisoblaysiz? Shu g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nimalar qilish kerak?
10.	Tikuvchilik sohasida startap loyihalarini amalga oshirish mumkinmi? Siz g'oyalar taklif eta olasizmi, tashabbus ko'rsata olasizmi? Kelajakda o'z loyihangiz bilan qatnasha olaman deb hisoblaysizmi?
11.	Sizning fikringizcha qaysi xorijiy davlatlar tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ilg'or hisoblanadi? Respublikamiz korxonalarida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarni ham jahon talabiga mos tayyorlash mumkinmi? Bu nimalarga bog'liq deb hisoblaysiz?
3-mavzu. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)	
1.	O'zingizning shaxsiy yutuqlarga erishganligingiz bo'yicha so'zlab bering, agar mavjud bo'lsa portfolio hujjatlaringizni taqdim eting.
2.	Texnikumda o'qigan davrda tikuvchilik sohasida qanday shaxsiy yutuqlarga erishgansiz? Keyingi rejalarigiz. O'zingizni tashabbusingiz bilan institutda o'tkaziladigan turli tanlovlarda faol ishtirok eta olaman deb o'ylaysizmi?
4-mavzu. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi	
1.	Kiyim funksiyasi qanday guruhlariga bo'linadi?
2.	Zamonaviy kiyim vazifasi bo'yicha qanday sinflarga bo'linadi?

3.	Kiyimga qanday talablar qo'yiladi?
4.	Antropometrik o'lchamlar olishda qo'yiladigan talablar, antropometrik nuqtalar nimalar?
5.	Befarqlik intervali nima va qanday aniqlanadi?
6.	Konstruksiya chizmasining uchastkalari bo'yicha (ort bo'lak, o'miz va old bo'lak) Π_r taqsimoti nimaga bog'liq?
7.	Kiyim konstruksiyalash uslublari, ularning umumiy tavsifi va tasnifi
8.	Chizma qurishda bazis to'rining qaysi chiziqlari dastlabki hisoblanadi?
9.	Yengning tipaviy konstruksiyasiga qanday talablar qo'yiladi.
10.	Yeng konstruksiyasini tuzish uchun dastlabki qanday ma'lumotlar kerak.
11.	Yoqalar qanday tasniflanadi?
12.	Kiyimlarni modellashtirishning qanday usullarini bilasiz?
13.	Yeng o'mizini o'zgartirmasdan yenglarni modellashtirishning qanday usullarini bilasiz?
14.	Qanday reglan yeng turlarini bilasiz?
15.	Modellar kolleksiyasi nima?
16.	Andazalar turlari. Andazalar chizmasi bajarilish ketma - ketligi nimada?
17.	Nazorat kertiklar nimalar, qayerlarga qo'yiladi?
18.	Andazalarni rasmiylashtirishda qanday texnik talablar qo'yiladi?
19.	Bel kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari
20.	Andazalarda tanda ipining yo'nalishi nimani bildiradi va u nimaga bog'liq bo'ladi?
21.	Tajriba sexining asosiy vazifalari.
22.	Bichish sexining vazifasi va unda qo'llaniladigan asbob-uskunalar?
23.	Gazlamalarni to'shash usullarini ayting
24.	Kiyim detallarini biriktirish usullari.
25.	Tikuv buyumlarini namlab-istiib ishlash ahamiyati.
26.	Qanday yelim material turlarini bilasiz?
27.	Yelim materiallari kiyimning qaysi joylarida ishlatiladi?
28.	Namlab-isitib ishlashning gazlama turiga bog'liqligi.
29.	Ustki kiyimda cho'ntak turlari.
30.	Qanday mashina chok turlarini bilasiz?
31.	Biriktirma chok turlarini ayting?
32.	Bezak chok turlarini ayting?
33.	Ziy chok turlarini ayting?
34.	Qirqma cho'ntak turlari?
35.	Ustki kiyimlarda uchraydigan yoqa turlari?
36.	Erkaklar shimida cho'ntak turlari?
37.	Trikotaj buyumlariga ishlov berishda qo'llaniladigan chok turlari?
38.	Tikuv-trikotaj buyumlari assortimenti va ularga ishlov berish xususiyatlari?
39.	Yengil kiyimlar assortimenti va ularga ishlov berish xususiyatlari?
40.	Tikuv buyumlariga ishlov berishda avtomat mashinalarning ahamiyati?

41.	Tikuvchilik korxonalarida texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan asosiy jihozlar turlari.
42.	Zamonaviy tikuv mashinalari klassifikatsiyasi.
43.	Moki va zanjir baxyaqatorlarning xosil bo'lish jarayonlari xususiyatlari.
44.	Bichuv sexlarida qo'llaniladigan zamonaviy bichuv dastgoxlari turlari?
45.	Tayyorlov sexlaridagi texnologik jihozlar turlari?
46.	Tikuv mashinalarining asosiy ishchi mexanizmlari.
47.	"Brother", "Yamato" firmalari ishlab chiqaradigan tikuv mashinalari turlari.
48.	"Durkopp Adler" firmasi qaysi davlatda joylashgan?
49.	Izma ochish yarimavtomatlari va avtomatlarining ishlash prinsipi, asosiy ishchi mexanizmlari?
50.	Tugma tikish yarimavtomatlari va avtomatlarining ishlash prinsipi, asosiy ishchi mexanizmlari?
51.	Yashirin baxyaqatorlar yuritib tikuvchi tikuv mashinalari ishlash xususiyatlari, qo'llanilish soxasi?
52.	Tikib-yo'rmash mashinalari asosiy ishchi mexanizmlari? Pichoq mexanizmidagi sozlashlar?
53.	Tikuv buyumlariga namlab isitib ishlov berishda qo'llaniladigan presslar turlari?
54.	Namlab-isitib ishlov berishda qo'llaniladigan jihozlar klassifikatsiyasi?
55.	Bug'-havo manekenlari bilan ishlov berish rejimlari?
56.	Moki va chalishtirgich mexanizmlari ishlash prinsipini bir-biridan farqi?
57.	Avtomatlar va yarimavtomatlarning farqi?
58.	Avtomatlar boshqaruv panelidagi asosiy funksiyalar?
59.	Moki baxyaqatorli universal tikuv mashinalarida ustki yoki pastki iplarning chokdagi nuqsoni qanday sozlanadi?
60.	Zamonaviy tikuv mashinalarini ishlab chiqaruvchi firmalar, davlatlar?

Eslatma: (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 15-bandi talablaridan kelib chiqib nizomda belgilangan 3 ta mavzu bo'yicha 25 tadan jami 75 ta savollar bazasi tuziladi. 1 ta mavzu bo'yicha talabgordan portfolio hujjatlari qabul qilinadi.)